

## Frazeologik birliklarning funksional-diskursiv xususiyatlari

Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” asarida bir nechta adabiy va tarixiy mavzular mujassamligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu asar tarixiy voqealarga asoslangan bolib, muallif bu voqealarni turli insoniy xislatlarni ifodalovchi mavzular yordamida mohirlik bilan yorita olgan.

Mazkur risolada Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” romanidagi 300dan ortiq frazeologik birliklarning funksional-diskursiv jihatdan tahlili amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslar, filolog talabalar, magistrantlar, tilshunoslar hamda badiiy adabiyotga qiziquvchi barcha muxlislarga mo'ljallangan.

Sayliyeva Mohinur Rahmiddinovna - filolog. Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi.



Globe  
EDIT

Globe  
EDIT



Mohinur Sayliyeva

## Frazeologik birliklarning funksional-diskursiv xususiyatlari

Margaret Mitchelning “Shamollarda qolgan hislarim” asari asosida.

**Monografiya**

**Mohinur Sayliyeva**

Udk: 81'255.2=111:821.512.133

**Frazeologik birliklarning funksional-diskursiv xususiyatlari**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**Mohinur Sayliyeva**

**Frazeologik birliklarning funksional-diskursiv  
xususiyatlari**

**Margaret Mitchelning “Shamollarda qolgan hislarim” asari  
asosida. Monografiya**

FOR AUTHOR USE ONLY

**GlobeEdit**

**Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L  
Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-620-0-63006-3**

Copyright © Mohinur Sayliyeva

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the  
OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAYLIYEVA MOHINUR RAHMIDDINOVNA**

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-  
DISKURSIV XUSUSIYATLARI**  
**(Margaret Mitchelning “Shamollarda qolgan hislarim” asari  
asosida)**

**2021**

Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” asarida bir nechta adabiy va tarixiy mavzular mujassamligini korishimiz mumkin. Ushbu asar tarixiy voqealarga asoslangan bolib, muallif bu voqealarni turli insoniy xislatlarni ifodolovchi mavzular yordamida mohirlik bilan yorita olgan.

Mazkur risolada Margaret Mitchellning “Shamollarda qolgan hislarim” romanidagi 300dan ortiq frazeologik birliklarning funksional-diskursiv jihatdan tahlili amalga oshirilgan.

Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslar, filolog talabalar, magistrantlar, tilshunoslar hamda badiiy adabiyotga qiziquvchi barcha muxlislarga mo‘ljallangan.

Masul muharrir:

**Nafisa Qosimova,**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

**G‘ayrat Murodov,**  
filologiya fanlari doktori

**Nozimjon Ataboyev,**  
filologiya fanlari boyicha falsafa doktori

**Monografiya BuxDU Ilmiy-texnik kengashining 2021-yil 29-  
noybardagi yigilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.**

## I BOB. BADIY DISKURSDA FRAZEOLOGIZMLAR

### 1.1 Badiiy diskursning oziga xos xususiyatlari

Badiiy nutq ozi uchun turli xil nutqiy faoliyat shakllarini tanlaydi. Koplav asrlar mobaynida badiiy adabiyot tili notiqlik sanati qonun-qoidalari orqali aniqlangan. Nutq (shu jumladan yozma nutq ham) aniq, puxta, taassurot uygotuvchi bolishi kerak bolgan; shundan xarakterli nutqiy usullar, yani kopsonli takrorlar, «bezaklar», hissiy boyoqdorlikka ega sozlar, ritorik savollar va boshqalar kirib kelgan. Mualliflar gapga chechanlik borasida bellashganlar, stilistika esa qatiy qoidalar asosida aniqlangan, badiiy asarlarning ozi esa kopincha ananaviy manolar bilan toldirilgan (asosan Orta asrlarda).

Natijada, XVII asrga kelib (klassitsizm davri) adabiyot ilmi kishilarning tor doirasi uchun yetarli darajada tushunarli boladi. Shu sababli ham XVII asrdan boshlab Yevropa madaniyati murakkablikdan soddalikka qarab rivojlanadi. V.G.Belinskiy notiqlikni “hayotning soxta ideallashtirilishi” deb ataydi. Adabiyot tiliga sozlashuv nutqi elementlari kirib kela boshlaydi. Sozlashuv nutqi, avvalombor, odamlarning shaxsiy hayotidagi muloqotlari bilan bogliq, shu sababli u oddiy va aniq belgilashdan erkindir<sup>1</sup>.

XIX-XX asrlarda adabiyot butunligicha yozuvchilar va olimlar tomonidan oziga xos muallif bilan oquvchining suhbatlari shakli sifatida tushuniladi. Filologlar til va nutqni ajratishadi. Til - bu davrlar mobaynida ozgaruvchi soz va grammatik prinsiplar asosida qurilgan birikmalar jamlanmasi. Nutq - malum bir milliy tilda ifoda, fikr va hissiyot va harakatda tilning namayon bolishidir. Nutqning xususiyatlari uning maqsad va bildirgan mazmuniga bogliq boladi. Badiiy nutqning xususiyati shundan iboratki, u obrazli shaklning bir korinishi sanaladi. Shu sababli unga sanatsdagi barcha shakllarga xarakterli bolgan xususiyatlar xos: obrazlilik va tasirchanlik (hissiy boyoqdorlik). Alohida bir asarni tadbiq etishda adabiyotshunosning vazifasi - badiiy nutqning stilistik oziga xosligini ornatishdir.

Tilshunoslar badiiy nutq organilishiga boshqa bir maqsad bilan qarashadi. Ular milliy badiiy til normalarining rivojlanishini aniqlashadi. Badiiy nutq organilishiga bagishlangan kop sonli tadqiqot ishlariga diqqat qaratish uchun, oquvchi, avvalombor,

---

<sup>1</sup>Boldiryov N.N. Kognitiv linguistika. Toshkent. 2004. —B.18.



ana osha ikki umuman boshqa-boshqa qarashlarni ko'zda tutishi kerak bo'ladi. Asarda nutqning mazmuni ko'pincha badiiy shakllarning bevosita ozlashtirilgan tomoni sifatida aniqlanadi, u estetik jihatdan tinglovchi va o'quvchiga ta'sir otkazadi. Adabiyotshunoslikda formalistik maktab mavjudki, ular badiiy nutqning aynan estetik oziga xosliklarini mutlaqlashtiradi va oz diqqatini estetik taassurot uygotuvchi tovushli va konstruktiv xususiyatlariga qaratadi. Bunda osha xususiyatlarni izohlovchi ikki xatoli fikrlar toqnashuviga duch kelamiz.

Birinchi, nutq xususiyatlari ular ifodalovchi mazmun chizigida qaraladi, oshanda uning estetik xususiyatlari badiiy soz ustasi ishida oz-ozini baholash va muhim ahamiyat kasb etib namoyon bo'ladi.

Ikkinchi, badiiy nutq o'zining estetik yonaltirishlari bilan umummilliy til normalariga qarshilantiriladi. Lekin amaliyot shuni korsatadiki, milliy tilning ichki qonun-qoidalariga tayanuvchi oziga xos shery til yaratishga bolgan barcha harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi yoki manosizlikka olib keladi. Bunga misol qilib rus futuristlarining shery amaliyotini keltirishimiz mumkin. Sheryat tilining formalistik konsepsiyaga bolgan metodologik tanqidlarni G.N.Pospelov va L.I.Timofeyev darsliklarida uchratish mumkin. Bunda shery tilning formalistik konsepsiyasini chetlab otib, badiiy nutqning yuqori tashkillashtirilgani, estetik sifatini rad etishdan va qarama-qarshi yonalishdan qochish zarur bo'ladi. Badiiy nutq masalasi - adabiyot haqidagi muhim qirralaridan biridir, chunki unga badiiy ijod mahsulining oziga xos xususiyati, yozuvchining shery mahoratining xususiyatlari taaluqlidir. U anchadan beri tadqiqotchilar va yozuvchilarning ham diqqatini qaratib kelmoqda. Bu masalaga bagishlangan otgan asrning asosiy mehnatlari sifatida B.M.Tomashevskiyning "Til va adabiyot", V.V.Vinogradovning "Badiiy adabiyot tili haqida", L.I.Timofeyevning "Adabiyot nazariyasi muammolari", A.V.Chicherinning "Goyalar va uslublar" asarlarini sanab otish mumkin.<sup>2</sup> Badiiy nutq-bu til vositalari yordamida badiiy asarda obrazli mano ifodalashdir. Tashqaridan qaraganda, badiiy nutq oddiy sozlashuv nutqidan hech farq qilmaydi, lekin u birinchi navbatda estetik funktsiya bajaradi. Badiiy nutq har bir ishlatilgan soz va konstruksiyalar yordamida muallif maqsadini amalga oshiradi va asar manosini ochib beradi. Til bir vaqtning ozida ham tasvir vositasi, ham tasvir predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Chunki muallif, bir tomondan voqea-

---

<sup>2</sup>Boldiriyov N.N. Kognitiv linguistika. Toshkent. 2004. —B.18.

hodisalarni, odamlarni va predmetlarni tasvirlashda ulardan foydalansa, boshqa bir tomondan esa oquvchilar bilan qahramonlar nutqining lisoniy oziga xosliklari ustida bosh qotiradi.

Badiiy nutqning xususiyatlari borasidagi masala 1920-yillarda qizgin tarzda muhokama qilinadi. Soʻz sanʼatida nutqning estetik funksiyasi ustunlik qilishi aytib otilgan. (R.O.Yakobson) Nutqning estetik funksiyasi esa istemoldagi badiiy nutqdan ifodani maqsad qilishi bilan farqlanadi. (B.V.Tomashevskiy). sheriya tili tadqiqoti sohasida formal maktab tomonidan qilingan xulasadan kelib chiqib: “Sheriy ijodkorlik til belgisining mustaqil qiymatiga tayanishga harakat qiladi. Ifoda vositalari muloqot faoliyatiga harakat qilib, sheriya tilda, aksincha aktuallikga harakat qiladi. Sheriyatning tashkillashtiruvchi vositasi sifatida aynan soz ifodasiga qaratilgan intilish xizmat qiladi”. Shuningdek, sanʼatda (faqatgina unda) diqqatning (shoirida qanday bolsa, oquvchida ham shunday) mano anglatadigan bolakka emas, balki belgining oziga qaratilishi haqida aytib otiladi.

Badiiy asarlarda nutq shakllarining katta ahamiyatini haqqoniy ravishda takidlab otib, bu bilan formal maktab vakillari “sheriya tili” va “muloqot tili”ni ota keskinlik bilan qarama-qarshi qoyishadi. S.Todorov 1970-yillarda yarim asr ilgari ishlab chiqilgan sheriya tili konsepsiyasiga kop narsalar qoshdi va sermazmun qildi. Olim diskurs tushunchasiga suyanadi. Bu - tildan keyingi, lekin fikrgacha bolgan qandaydir lingvistik umumiylik. Ilmiy, hayotiy-amaliy, rasmiy, adabiy-badiiy diskurslar farqlanadi.

Todorov, birinchidan, har bir diskursda ozining normalari, qonun-qoidalari, nutq hosil qiluvchi yonalishlari, fikr yuzaga keltirishdagi ozining prinsiplari mavjudligini, va ikkinchidan, diskurslar qatyi (otib bolmas) chegaralar bilan ajratilmagan va ozgarishsiz bir-biriga tasir qilishini isbotlab beradi. Va, xulosasi shundan iborat boladiki: badiiy hodisalardan tashqari barchasi uchun qonun mavjud emas, va faqat ular uchungina, “badiiylik” xususiyati adabiyot chegaralarida ham namayon boladi. Olimning fikricha, bir xildagi badiiy diskurs mavjud emas. Todorova konsepsiyasida formal maktabning “adabiyot va noadabiyot ortasidagi nomuvofiqlik diskurslar tipologiyasiga joy beradi”<sup>3</sup> fikriga nisbatan qarashi ozgacha, lekin kopgina fikrlarda bir-birga mos.

---

<sup>3</sup> Kox V.A. Diskursiv analiz. Toshkent. 2002.-B.162.

Eng muhimiga kelsak: badiiy diskurs xususiyatini olim, nafaqat asarning nutqiy negizida, balki chuqur manoli predmet tarkibida qarab chiqadi. Adabiyotning mohiyati, Todorov yozishicha, badiiy uydirman nazarda tutgan holda, shundan iboratki, u “haqqoniy ham bolmagan, mantiqiy nuqtai nazardan yolg'on ham bolmagan gapdan foydalanadi”.<sup>4</sup> Va yana shuni korsatib ham otadiki, soz sanati “belgida solingan barcha simvulli imkoniyatlarning tartibi va dolzarbligiga intilish” oziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, badiiy asarlarning nutqi, ifodalarning boshqa turlariga qaraganda anchagina qamrovli xarakterga ega. Eng muhimi, ehtiyoj tugilganda ifodalilikka va qat'iy tashkillashtirishga intiladi. Ozining eng yaxshi namunalarida u maksimal tarzda mano bilan boyitilgan boladi, shu sabab ham qandaydir qayta bezalish, qayta qurilishga chiday olmaydi. Shu sababli, badiiy nutq qabul qiluvchi (oquvchi) dan, nafaqat xabar predmetiga, balki uning shaxsiy shakllari, uning boyoqlari, rang-tuslariga ham jiddiy diqqat qaratish talab qilinadi. R.O.Yakobson yozishicha: “Sheriyatda har qanday nutqiy element shery nutqning figurasiga aylanadi”.<sup>5</sup>

Kopgina badiiy asarlarda (asosan sherlarda) soz negizi boshqa turdagi ifodalardan tezda farqlanadi (imkon boricha Mandelshtam, Pasternak sherlaridagi mazmunga boy kinoyalardan). Lekin soz sanati ijodlarida ozgarishsiz (aniq bolmasa ham) ifodaviylik va nutqning tartibliigi mavjud boladi; bu yerda asosiy planda uning estetik funksiyasi yuzaga chiqadi. Badiiy adabiyotning tabiati va mohiyatini tushunish bilan bogliq qiyinchiliklar bir qancha prinsipial muammolardan iborat.

Birinchi muammo sifatida, shery nutqning kishilarga nima uchun kerakligi, nega “normal” bolgan til yetishmasligi va nega har bir madaniyat rivojlanishida sheryat mavjud bolishi qaraladi. Oddiy javoblar (masalan, sherlar bilan gapirish chiroyli) mumkin, lekin ular oldimizda turgan muammoni yecha olmaydi, aslida esa uni takidlab otadi. Oddiy bolsa ham barchasi “gozallik”da deb tan olsak hamki, baribir nima sababdan shunday “chiroyli” ekanligi noaniq bolib turadi.

Ikkinchi muammo shundan iboratki, tabiiy nutqning ifoda vositalarini haqiqiy badiiy nutqnikidan ajratib qoyish qiyin masala. Badiiy nutq muammolari boyicha ancha obroli mutaxassis V.P.Grigoryev, ensiklopedik maqolasida bu haqida toxtalib otgan: “U yoki bu bosqichdagi ijodiy xarakter har qanday “tirik” nutqni ajratib korsatadi, uning

<sup>4</sup> Kox V.A. Diskursiv analiz. Toshkent. 2002.-B.167.

<sup>5</sup> Kox V.A. Diskursiv analiz. Toshkent. 2002.-B.164.

badiiy nutq bilan zid qoyilishi badiiy asarlarda faqatgina tilning mazmunder qollanishi, chuqur funksiyasi planida yuzaga keladi. Badiiy nutq uchun uzluksiz ravishda qollanuvchi tilning estetik (poetik) funksiyasi xosdir. U muallif fikrining timsoli vazifalariga qaram va boshqa nutq korinishlarida u tosatdan kamdan-kam holatlarda paydo boladi. Bu shunday minimal matnlarda, masalan, badiiy nutqni farqlaydi, va ularga maqollar, tez aytishlar, topishmoq kabilar kiradi. Oddiy aloqada ularning tasvirlanadigan hodisalari, shuningdek, alohida aforizmlar obrazlilikgi, bazi-bir “qanotli sozlar”, “bonmo” (otkir iboralar) va boshqa soz oyinlarini farqlaydi. Lekin, aniq qilib badiiy nutqni chegaralaydi va, masalan, gapga chechanlik notiqlik sanatida mavjud bolishi dargumon”. Qisqacha qilib aytganda, muammo shundan iboratki, oddiy tilimizda badiiylik elementlari koproq yoki kamroq tasadduf bilan yuzaga keladi va yonaltirilgan xarakterni tashib yurmaydi. Sheriy nutqda esa oddiy til yonaltirilgan va doimiy shakliga ozgaradi. Shunday bolsa ham deformatsiya usuli bir-biriga mos bolishi mumkin.

Uchinchi muammo shundaki, adabiyotda foydalanadigan koplak usullarning ishlash mexanizmi unchalik tushunarli emas. Masalan, nima uchun bir necha bor takrorlangan soz yoki ibora bir marta aytgandagidan kora kuchliroq tasir qiladi? Nima uchun omadli metafora mantiqiy benuqson tezisdan kora oquvchining aql va yuragiga yetib boradi? Bundan tashqari, benuqson mantiqiy qurilishlar metafora ichki qonuniyatlari bilan bahslasha olmaydi. Metaforalar nazariyasi boyicha mashhur mutaxassis N.D.Arutyunova, shu munosabat bilan “Ivan Ivanovich Perepenko (N.V.Gogolning mashhur qissasi) ni “erkak goz” deb atashganda uning dvoryanligini korsatish uchun behudaga metrikaga asoslangan, bundan tashqari erkak gozni “metrik kitobda yozib bolmaydi, chunki erkak goz odam emas, balki qush” ekanligini zukkolik bilan payqaydi. Nima uchun aniq metaforaga nisbatan bunday yordamga muhtoj xulosalar qilingan? Shu masalada katta hajmdagi adabiyot mavjud, lekin bu muammoning yechilishigacha hali kop vaqt bor.”<sup>6</sup>

Tortinchi muammo — bazan qandaydir bir usulning paydo bolish mexanizmini tushuntirib berish juda qiyin (masalan, murakkab metaforalarni). Boshqa soz bilan aytganda, nima sababdan, hattoki orta malakali oquvchi dohiyona metaforalarning tubidagi manosini his etishga va manosiz soz oyinlaridan farqlashga qodir degan

---

<sup>6</sup> Kox V.A. Diskursiv analiz. Toshkent. 2002.-B.162.

savolga javob aytish qiyin. Yuqorida aytib otganimizdek, nutq yashirin mano saqlovchi qandaydir bir “potensial” til sifatida ketishi mumkin. Ularni oquvchilar tomonidan matnga duch kelgan vaqtda taniy oladilar, lekin ifodalarni esa faqatgina dohiy shoir taniy oladi. Bunday “potensial” manolar hududi qayerda joylashganligi va qanday shakllanishi - tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiyaning qiziqarli muammosi sanaladi. Lekin, aytib otganimizdek, bu yerda javoblardan kora, savollar koproq. Bu kabi barcha muammolar bir-biri bilan boglangan, va ularsiz badiiy adabiyot teranlikdan mahrum boladi, barchasi faqatgina usullarni va ularning klassifikatsiyasini rasmiy tarzda tanish bilan kifoyalanadi. Shu sababli, bunday muammolarga bugun yoki ertaga yoliqamiz. Boshqa tomondan, badiiy nutq, ohang borasida hali endigina bilimlarimizni oshirayotganligimiz uchun, hozircha psixologiya va falsafaning teran savollari ustida bosh qotirishimiz kerak, katta bosqichda esa badiiy nutqning asosiy qonuniyatlari va usullarini tasvirlashimiz kerak. Shunisi tushunarliki, muammoni kondalang qilib qoyishning hech bir manosi yoq, masalan, agar biz metaforaning nima ekanligini bilmasak, mashhur amerikalik tilshunos J.Lakoffning qanday qilib insoniyat borligining tayanch metaforalarini yuzaga chiqarishidan xabardor bolmay qolamiz.

Dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bagishlangan ishlarning kopchiligida “diskurs” termini bot-bot qollanadi.

V.Xegay haqli ravishda takidlaganidek, bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bolsa-da, matn lingvistikasining ozida ham yagona, kopchilik tomonidan etirof etilgan talqini, manosi yoq, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qollangan bolsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa ogzaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Masalan, golland tilshunoslari T.A.Van Deyk va V.Kinchlar “keyingi yillarda bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda bogliq nutq yoki diskursni organishga bolgan qiziqish ortganligini takidlar ekan, “diskurs”ni “bogliq nutq”ning sinonimi sifatida qollaydi.<sup>7</sup> Bogli nutq deganda, albatta, matn tushuniladi, korinadiki, “matn” va “diskurs” terminlari teng manoli sozlar sifatida ishlatilgan. “Matn” va “diskurs” terminlarini bir-biridan farqli tushunchalar ifodasi uchun qollash ham keng tarqalganligini kuzatish

---

<sup>7</sup>Kox V.A. Diskursiv analiz. Toshkent. 2002.-B.162.

mumkin. Tadqiqotchilar fransuz filologiyasida “diskurs” termini bir-biridan farqli tort xil manoda qollanishini aytadilar.

A.I.Gorshkov alohida korsatib otganidek, lingvistik adabiyotlarda “diskurs” terminining qat’iy bir manosi yoq, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, yani “matnning qismi”dan yaxlit “nutq”qacha bolgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu sozning manosi fransuzcha discours — “nutq”, “sozlash” demakdir. Uning qayd etishicha, “diskurs” sozi “matnning qismi” manosida termin bola oladi, ammo u matn muammosi turlicha nuqtai nazarlardan turib tadqiq etilgan juda kop lingvistik adabiyotlarda “frazadan katta birlik”, “murakkab sintaktik butunlik”, “matn komponenti”, “registr”, “jumla”, “prozaik strofa”, “sintaktik kompleks”, “monologik jumla”, “kommunikativ blok” kabilar bilan sinonim bolar ekan, “diskurs” terminiga ehtiyoj yoqligini takidlaydi. Biz ham shunday deb hisoblaymiz. “Diskurs” termini haqidagi mazkur mulohazalardan maqsad bu sozning asl manosi “nutq”, “sozlash” ekanligini, adabiyotlarda bu terminning “matn”ga sinonim sifatida qollanganligini takidlash va shu tarzda matnning yozma ham, ogzaki ham bolaverishiga yana bir marta urgu berishdan iborat edi. Demak, matn ogzaki yoki yozma shakldagi yaxlit nutqiy asardir.

## **1.2. “Gone with the Wind” asarining badiiyati xususida**

Skarlet Ohara - bu “Shamollarda qolgan hislarim” asarining ham ijobiy, ham salbiy qahramoni hisoblanadi. Ushbu kitobning birinchi satridan romantik chegaralarini buzadigan personaj — Skarlet Ohara chiroyli bo‘lmagan, lekin erkaklarni oziga rom eta oladigan uddaburon qiz edi. Erka, jahldor va kuchli irodali on olti yoshli tantiq Skarlet Shimoliy Gruzianing Tara deb nomlangan plantatsiyasida oziga toq hayot kechiradigan Janob Oharaning uchta qizining tongichi edi. Asarning dastlabki lavhalarida Oharalar qoshnilari bilan ahil-inoq yashashlari va Skarletning Eshlining muhabbatini qozonish uchun olib brogan say-harakatlari namoyon bolgan. Biroq Eshli Uilks Skarletning dugonasi Melanini yoqtirardi. Skarletning harakatlari besamar ketadi. Uning muhabbati Eshli tomonidan rad etiladi. Skarletning oshigi Ret Batler uning Eshli

tomonidan rad etilgani uchun judda qattiq kamsitadi. Keyin kibarlar davrasining eng yuqori choqqisida turuvchi Ret Batler ham Skarletga qiziqib qoladi.

Urush haqidagi yangiliklar va urushning daxshati Taraga yetib boradi va Skarletning hayotida va uning atrofidagi barcha odamlarning hayotida urush tufayli juda katta ozgaishlar boladi. Vaziyatlardan hafsalasi pir bolgan va Eshli tomonidan rad etilgan Skarlet Melanining ukasi Charlzga turmushga chiqadi. Charlz Ohara partiyasida qatnashgan aksariyat yigitlar singari urushga boradi va vafot etadi. Skarletning turmush ortogi Charlz jang qilmasdan qizamiqdan vafot etadi. Beva qolgan Skarlet ozining plantatsiyagi uyida yashay olmay, Atlantaga kochib, qayinopasi Melani va uning ammasi Pitti bilan birga yashaydi. Melani Skarletga katta muhabbat va hurmatni namoyon qiladi, ammo Skarlet unga hasad qiladi va undan nafratlanadi. Skarlet Atlanta jamiyatidan norozi boladi.

Ret va Skarlet tinimsiz bahslashishadi, lekin u uni chindan ham tushunadigan yagona odam edi. Keyingi bir necha yil ichida Konfederatsiyaning ahvoli yomonlashadi. Uyushma qoshinlari Atlantaga yaqinlashishni boshlaydilar. Melani homilador edi, shu paytda bolani dunyoga keltirayotgan edi. Shuning uchun Skarlet aksariyat aholisi bilan shaharni tark etishni rad etadi. Shaharga ot qoyilgan va juda achinarli ahvolda edi. Osha paytda Skarlet Melanining chaqalogini sog-salomat dunyoga kelishi uchun juda katta harakat qiladi. Melani sog-salomat farzandli bolganidan song, Skarlet va xizmatchilar Ret yordamida qochib ketishadi.

Skarlet Tara shahriga qaytib keladi va uning oilasi bilan birgalikda ushbu shahar deyarli vayron qilinganligini korib hayratda qolishadi. Uning singillari kasal bolib qoldilar, otasi ruhiy tushkunlikka uchradi, onasi esa vafot etdi. Ittifoq armiyasi qoshnilarining mol-mulkini yoqib va talon-taroj qilib, hudud boylab harakat qilishardi. Tara talon-taroj qilingan, ammo butunlay vayron bolmagandi. Ovqatlanish uchun ovqat yoq edi, Skarlet esa plantatsiya atrofidagi qishloq joylarini qidirib topadi. U birinchi marta qol mehnati bilan shugullanadi va bundan keyin “endi hech qachon och qolmayman” deb qasam ichdi.

Urush tugagach, plantatsiya tiklanadi. Mulkdan ulkan soliqlar undirila boshlanadi. Skarlet esa singlisining boylklarini ogirlab Atlantaga qochib ketadi. Katta boylikka ega bolgan Frenk Kennidi Skarletning qarzlarini tolashga rozi boladi. Keyin Skarlet Frenk Kennediga turmushga chiqadi. Oilaviy uy va moliyaviy taminot bilan

Skarlet endi taniqli ishbilarmon ayolga aylanib, Frenkning arra ishlab chiqarish korxonasini juda rivojlanib kengayib bormoqda edi. U yerda qora tanli erkaklar Skarletning chiroyiga mahliyo bolib, uni juda kop bezovta qilishadi. Skarletni himoya qilmoqchi bolgan Frenk Kennedi qora tanlilar bilan mushlashadi. Hujum paytida Frank oldiriladi va Skarlet yana bir bor beva bolib qoladi.

Keyinchalik, Ret Skarletga uylanadi. Ularning munosabatlari yaxshi bolmaydi, lekin ularning Bonni Blyu ismli qizchasi bor edi. Skarletning Eshliga bolgan munosabati Retni kundandunga gazablantirardi. Ushbu harakatlar Skarlet sevgisini qozonmoqchi bolgan Retning umidlari tobora koproq puchga chiqq boshlaydi. Red ham Skarletga kuchli bosim va tazyiqlar otkaza boshlaydi. Skarlet yana homilador bolib qoladi, ammo bolasini yoqotadi. Bu hodisa esa Ret va uning rafiqasi ortasida osib borayotgan yana bir achinarli munosabatga ulkan jarlikni hosil qiladi. Bonni Blyu-onasi singari chiroyli, oziga ishongan va ruhi tetik qizcha edi. Biroq otda sayr qilmoqchi bolganida otdan yiqilib hayotdan koz yumadi. Ret chuqur qayguga botadi. Skarlet ham bir muddat ushbu mudhish hodisadan ozini onglay olmaydi. Avvalgi ikki turmushidan bir ogil va bir qiz farzandi bor edi. Biroq ularni ham yoqotgan edi. Skarlet Retga bundan buyon farzand korishni xohlamlasligini aytadi. Eridan boshqa xonada yotishini talab qiladi.

Melani tugruq paytida vafot etadi va Skarletdan eriga gamxorlik qilishni iltimos qiladi. Skarlet, nihoyat Eshli Melani har doim yaxshi korganligini va uni hech qachon sevmaganligini angloydi. Skarlet ham Eshliga bolgan munosabati muhabbat emasligini tushunadi. Retga bolgan munosabatlari haqiqiy muhabbatligini angloydi. Skarlet buni juda kech tushunib yetadi. Oxir-oqibat Eshliga bolgan his-tuygularidan charchagan Ret uni ortiq sevishni xohlamaydi va tashlab ketishga qaror qiladi. Skarlet undan qolishini iltimos qilib, usiz yashay olmasligini aytadi va Skalet kitobning eng mashhur satrini aynan shu yerda aytadi: “Azizim, meni tashlab ketma, yolgiz qoldirma”. Skarlet uning ketishini kuzatib turadi va asta-sekin oz kuchini yigadi. Keyin Tara shahriga qaytib, hayotini tiklashga vada berib, uni qaytarib olishga qasam ichdi. Shubhalar unga hujum qilar ekan, u romanning noaniq yakunlovchi sozlarini aytdi: “Ertaga, men uni qaytarib olishning biror bir yolini oylayman. Axir, ertaga yangi kun keladi”.

Endi asarning bosh qahramonlaridan hisoblangan Ret Batler haqida gapirmoqchimiz. Ret Batler Skarlet bilan birinchi marta “On ikki eman” plantatsion



partiyasida uchratib qoladi va darhol Skarletning yuksak ruhiy tabiati uni jalb qilinadi, oxir-oqibat uni sevib qoladi va unga uylanishiga vada beradi. Ret baland boyli, qorachadan kelgan va kelishgan yigit edi. Ret Skarletni ziyofatda Eshli bilan bolgan mehrsiz suhbatini yashirincha tinglaganini bilib, Skarletning gazablanishga sabab boldi. Skarletning maftunkor korinishi, oziga ishonishi va insonlarni jalb qiladigan xulq-atvori Retni oziga maftun qilib qoyadi. Fuqarolar urushi davrida Ret askarlarning orniga blokadada qatnashishga undaydi, bu Retni boy qiladigan va Skarletni oziga jalb qiladigan faoliyat edi. Uning gayritabiiy qobiliyati Skarletni oziga tortadi, chunki u boshqa erkaklar singari Retga ustunlikni qolga kirita olmaydi.

Romanning eng mashhur nuqtalaridan biri - Skarlet oziq-ovqat izlash uchun on ikki eman plantatsiyasiga borganidir. On ikki eman yoqib yuboriladi va ekinlar yoq qilinadi, ammo qullar bogida biroz oziq-ovqat qolgan edi. Skarlet faqat turp topadi. Turpni qazib bolgach, Skarlet oziga vada beradi: “Xudo mening guvohim bolsinki, men Xudoning guvohi bolganim kabi Yankilar meni yengolmaydi. Men ularni yengaman. Men ular bilan yashayman. Endi men hech qachon och qolmayman. Agar biror odamni ogirlash yoki oldirish kerak bolsa ham, Xudo mening guvohim bolsinkim, men endi hech qachon och qolmayman”. Bu Skarletning hayotida uchun burilish nuqtasi boldi, u yaqinlari hayotini saqlab qolish uchun har qanday ishga tayyor edi. Ajablanarlisi shundaki, u onasi singari xonim bolishni xohlama ham, Tarani qutqarish uchun qilishi kerak bolgan hamma narsani bajarishga tayyor edi. Bundan tashqari, u Eshlini yoqtirib qoladi, chunki u kelishgan janob edi va Skarlet Eshlining gozal xonimi bolishni xohlaydi. Biroq Eshli bilan umuman oxshashlik jihati yoq edi. Skarlet Eshliga erishish uchun qolidan kelgan hamma ishni qiladi. Biroq sevgi deb oylagani hoy-u havas ekanligini kech tushunadi.

Eshli - xayolparast, oltin sochli janob, Skarletning qalbini zabt etadi. Eshli bilimli, oziga ishongan va kelishgan, Skarlet uchun Taradagi mukammal bir janob edi. Ammo Skarletdan farqli olaroq, Eshli urushdan keyin ozini biroz yoqotib qoyadi. Plantatsiya nazorati azosi Eshli shu soha boyicha uquvsizroq edi. U fermerlik qila olmaydi va u Skarletning tegirmon menejeri sifatida ozini befoyda urintiradi. Uning xarakteri osha davrning ramziy manosini anglatadi. Urush paytida qamoqxonaga tushib qolgan kezlarida ham, hech qachon Konfederatsiyaga xiyonat qilmaydi. Shuningdek, u Melani Skarletning tazyiqlaridan asraydi. Melenini ketishga majbur qilayotgan

Skarletga qarshi chiqadi. Skarlet oz tegirmonida pul ishlash uchun ishlatadigan vijdonsiz biznes rejasidan foydalanishga xalaqit beradi.

Ushbu asarda ayniqsa, qahramonlarning ruhiy kechinmalari va iztiroblari yorqin boyoqlarda ifoda etilgan. Shuningdek, Skarletning osmirlik yillari va Eshliga bolgan gozal muhabbati ham juda rangli tasvirlangan. Harakatlarning uygunligida, asarning kulminatsiyasida Skarletning asta-sekinlik bilan boy korsatgan manaviy va ruhiy tasirchanligi, iztiroblari va kechinmalari asosiy orinni egallaydi desak mubolaga bolmaydi. Asarda tasvirlangan har bir voqealar rivoji insonni oziga bevosita jalb qiladigan suratda namoyon boladi. *“Shamollarda qolgan hislarim”* asari badiiy asar yozish sanati sezilarli burilish hosil qildi desak mubolaga bolmaydi. Chunki bu asarda har bir qahramonning oy-xayollari, iztiroblari, xursandchiliklari, yutuqlari va muhabbati yorqin boyoqlarda tasvirlangan bolib, kitobxonlarni bevosita jalb qilmay qolmaydi.

Yozuvchining ozi bu asarni *“Inson ozi-ozini anglashning birinchi tarixi”* deb nomlagan. Bu roman ijtimoiy tanqidning elementlari, xristian etikasining yani odob-axloq qoidalarni va pand-nasihatlarini oz ichiga oladi. Bu asarda, shuningdek, sinfiy ayirmachilik yani tabaqachilik, din, ayollarga bolgan munosabat, sevgi, dostlik, mehr-muhabbat, ruhiy iztiroblar kabi bir qancha mavzular yaqqol boy korsatgan. Biz bu mavzularning rang-barangligidan ilhomlanib, ularning kolamini ochib berishga harakat qilamiz.

*“Shamollarda qolgan hislarim”* asarida taqdim etilgan osha davrda jamiyatda ayollarning orni va ijtimoiy axloq qoidalari juda ajoyib yoritib berilgan.

Bu asarda ayollarga bolgan munosabat, ayollarining jamiyatdagi roli ham yozuvchi tomonidan juda jozibali korinishlarda tasvirlangan. Bu mavzu asosan Skarletning mustaqil qaror qabul qila olishida, uzoqni kora bilishida, ochiq fikrlaydigan hur fikr ayol ekanligida yaqqol namoyon boladi. Yosh, jamiyatda hali oz orniga ega bolmagan Skarlet ozining qiyinchiliklari davomida yaxshi, ruhiy va axloqiy jihatdan hali kamol topmagan odamlarga duch keladi. Ularnig kopchiligi kuch bilan ozining niyatlarini amalga oshirishni va Skarletning ustidan hukmronligini otkazishga ham harakat qilardi. Skarlet ayollarning mustaqil qaror qabul qila olishi, ularning erkinligi jamiyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligini juda yaxshi anglardi. Boshqalarga qaram bolmaslikni, jamiyatdagi oz ornini yoqotmaslikni, birovdan qarzdor

bolmaslikni o'zining hayotdagi eng muhim vazifasi deb hisoblardi. Skarlet osha payt nuqtai nazari bilan qaraganda, ayollarning mustaqilligi uchun katta ozgarishlar tarafdori bolgan ochiq fikrlaydigan ayol bolgan desak mubolaga bolmaydi. Skarlet ayollarga hukmronlik qiladigan, oziga boysuntiradigan, ayollarni bir buyumdek qaraydigan odamga hech qachon turmushga chiqishni xohlamasdi. U mustaqil qaror qabul qiladigan, har qanday joyda orni boladigan ziyoli ayol bolishni xohlardi. Shuningdek, u turmushga chiqadigan inson har tomonlama ozi bilan teng fikrlaydigan, ochiq fikrli kishi bolishini xohlardi.

Shuningdek, asarda xonimlar va janoblarning kiyinishi, harakatlari va nutqini aniq qoidalar asosida talaffuz qilishlari jamiyatda axloqiy qoidalarni naqadar ustun ekanligidan dalolat beradi. Ret birinchi marta *“On ikki eman”* plantatsida kochib borganida, Charlstonidagi uyidan uni qanday qilib quvib yuborganliklari haqida mish-mishlar tarqaldi. Chunki u Charlstonidagi uyida bir ayol bilan tun boyi qolib, keyin uylanishdan bosh tortgan. Bu qilmishi esa nafaqat o'zining, balki ayolning ham obroyi tokilishiga sabab bolgan edi.

Bu asarda yana bir serqirra mavzulardan biri ham juda rangli boyoqlarda ochib berilgan. Bu ijtimoiy sinf mavzusidir. Skarlet kambagal ziyoli oiladan chiqqan ilmi va erka qiz sifatida tasvirlangan. Uni bazi orinlarda kamsitishlariga qaramay, u oziga bolgan qat'iy ishonchini yoqotmaydi. Garchi u ziyoli, tarbiyali, ilgor fikrlaydigan bolsa ham, kuchsiz bir insondek qarashardi.

Mitchel ijtimoiy sinf tuzilishini jamiyatning turli darajalarini aks ettiruvchi turli xil belgilar bilan tasvirlaydi. Oqsuyaklar sinfining eng pastki qatlamida turuvchi Ohara oilasining qullari bolmagan va ular kambagal dehqonlar bilan yonma-yon yashashardi. Hatto, onaxon ham ularni *“oq axlat”* deb atab, ularga past nazar bilan qaraydi. Keyingi qatlamda Uill Bentin kabi kichik fermerlar turardi, ular bir nechta qullarga egalik qiladi va ortacha darajada turardi. Ammo ular ham boy emas edi. Jamiyatning yuqori qismida katta plantatsiyalari bolgan Ohara oilasining qoshnilari - Fonteynlar, Kalverts, Uilks va Tarletonlar singari yuzlab qullar bolgan oilalar turgan. Albatta, fuqarolar urushi bu farqlarni yoq qiladi va familiyasidan qati nazar, hamma tirik qolishga harakat qiladi, hatto boylik ham yordam berolmaydi.

Mitchelning asarida takidlamochi bolgan yani bir mavzu qiyin paytlarda oz jonini asray olish, omon qolish *“Shamollarda qolgan hislarim”* asarining asosiy

mavzusi deb belgilanadi. Fuqarolar urushi vayronagarchiliklaridan song, qayta qurish davrida, Ret va Skarlet tirik qolganlarini yozuvchi madonavorlik sifatida gavdalantiradi. Bu paytda Eshli va Melaning munosabatlari gullab-yashnamoqda edi. Ret va Skarlet ikkalasida ham vaziyatlarni real baholash va ozgaruvchan davrga moslashish qobiliyati ularga katta foyda keltiradi. Skarlet va uning atrofdagilarga otmishni unutib, bolgan ishlaga koz yumib, kelajakda yashashda davom etishlari kerak edi. Ret ham ozini tiklab olish uchun juda kop harakat qiladi.

Ret romanning boshida Skarletga jamiyat qurishda ham, uni yoq qilishda ham pul topish kerakligini aytadi. Urushga chiqishning orniga, Ret undan blokada yuguruvchisi bolish, Konfederatsiya valyutasi bilan emas, balki oltin bilan muomala qilish va urush tugaguniga qadar oz pullarini barqaror Yevropa banklarida saqlash orqali foyda koradi. Skarlet Atlantani qayta qurish uchun yogoch qanday zarur bolganini korib, yogoch fabrikasini sotib olishdan foyda koradi.

Yuqorida qayd etib otilgan insoniy tamoyillar faqatgina insonga quvonch bagishlash va borttirish uchun emas, balki bu orqali insonga hayotning past-u balandliklariga tayyor turish, inson boshiga tushadigan qiyinchiliklarni mardonavor yengib ota olishga bolgan qatiyatni bevosita shakllantirishga debocha boladi desak yanglishmagan bolamiz.

Skarlet, Eshli va Ret ortasida yaratilgan sevgi uchburchagi bu hikokayining asosiy mavzularidan hisoblanadi. Romanning aksariyat qismi uchun Skarlet ozini Eshliga bolgan tuygularini muhabbat deb biladi va ularning bir-biridan qanchalik farq qilishlarini hech qachon tushunmaydi. Bundan tashqari, u Retga bolgan his-tuygularini tushuna olmaydi. Oxir-oqibat, Eshli Skarletni sevishini tan olsa ham, u rafiqasi Melanini tark etmaydi. Skarlet odamlar uni buyuk xonim deb oylashlarini orzu qiladi, shuning uchun u hech qachon sodda Ret Batlerni oziga munosib deb hisoblamaydi.

Skarletning ikki eri, uni sevmasligini hech qachon anglamay, uning jozibasiga mahliyo bolib qoladi. U Melaniga uylangani uchun Eshlidan qasd olish madsadida Charlzga turmushga chiqadi va uning pullari tufayli singlisi Suellendan Frenkni tortib oladi. Odamlar unga bolgan sevgisini tan olishganda, Skarlet ularning sevgisini mensimaydi. Ret Skarletga aytganidek: “Sizni sevadigan insonganlarga shafqatsizsiz, Skarlet. Siz ularning sevgisini bilib, qamchi singari ozlariga qarshi foydalanasiz”. Ret bir korishda Skarletni sevib qoladi, uning ichidagi yaqinlik tuygusini tan oladi.

Ammo ikki marotaba beva qolgan Skarlet nihoyat unga turmushga chiqishga rozi bolsa ham, unga bolgan munosabatini yaxshi emasdi. Biroq asar oxirida Skarlet Eshlini hech qachon sevmaganini, haqiqiy muhabbati Ret Batler ekanligini anglaydi.

Asarda Skarlet ozining eng yuqori darajada turuvchi obroyini doimo saqlab turardi, uning uchun gurur eng yuqori orinda turardi. Skarlet ozini ham moliyaviy, ham manaviy jihatdan teng bolgan joshqin va tasirchan insonlar davrasida ozini qulay va erkin his qilardi. Yozuvchi nuqtai nazari asosida tasvirlangan Skarletning xarakteridagi bu xususiyatlar erkaklarning huquqlari ustun turadigan qoloq qarashlarga keskin burilish hosil qildi desak mubolaga bolmaydi.

### 1.3. Frazeologizmlarning asar badiiyatini taminlashdagi roli

Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarining tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda koproq frazeologik iboralarning tarkibidagi sozlar soniga qarab eibor beriladi. Tasnif natijasiga, iboralar tabiatiga kora nechta sozdan tashkil topganini aniqlash mumkin. Koppina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki sozdan ortiq boladi, degan fikrlarni aytadilar. Ammo kuzatishlar shuni korsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq sozlardan iborat boladi. Ammo ayrim olimlar bir sozdan iborat iboralar ham bor deb bildiriladilar. Iboralar bir sozdan iborat iboralar idiomatik birikmaning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil boladi. Bu turdagi iboralar qoshma soz yoki yakka soz bilan ifodalanadi, ular togri-dan-togri fikrni anglati olmasligi jihatdan qoshma sozlardan farq qiladi. Togri, bir soz orqali idiomatik mano anglatadi. Lekin bunday sozlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora sozlar birikmasidan iborat bolishi kerak. Idiomatik sozlar faqat yolgiz sozlardangina tashkil topib, idiomatik mano anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni aks ettira olmaydi.<sup>8</sup>

Shuningdek, frazeologik birikmalarning tarraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qoshilmalarga aylanishi kerak, farazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qoshilmalarga taraqqiy etishi kerak. Yuqoidagi fikrlarga “Idiomatik sozlar frazeologik qoshilmalar negizida vujudga

<sup>8</sup>Yoldoshev B. Ozbek va ingliz tilida frazeologik birliklarning funksional — uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T.:1993- B.47.

keladi” degan tarif asoslidir. Frazeologik birikmalar asosan sozlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bolib, tuzilishiga kora erkin boglanma yoki u gapga teng toliq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turgun soz birikmalarini oz ichiga oladi.

Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa qardosh tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari malum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas.

Shu manoda frazeolog olim A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining kopchiligining muallifi nomalum bolib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda korsatib otgan. Ammo bazi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu manoda frazeologiya tilining umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bolib, bu tizim ozida otmish merosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan-avlodga otadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning kopchiligi malum tilning boyish manbaidir.<sup>9</sup>

Frazeologik tizimini, frazeologik birliklar, ularning asosiy kamchiliklari ortasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeeologizmlar birdan ortiq sozlardan tashkil topgan, mano va shakl jihatdan turgun bolgan sozlar boglanmasidir. Frazeeologizmlar kochma manoda, obrazli ifodalarda qollanadi hamda tarixiy qollanish meyorlariga, usullariga ega bolib, ularning manosi muayan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeeologizmlar soz birikmasi yoki gap shaklida bolsada, ular nutq birligi bolgan gaplardan farq qiladi. Ular lugaviy birlik sifatida kop jihatdan sozlarga yaqin turadi, sozlarga xos bolgan juda kop xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

“Frazeeologiya” atamasi yunoncha *“frazza”* (phrasis-ifoda, nutq orami) sozidan olingan bolsa-da, bu atama turlicha manolarni ifodalashda xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi ikki monoda qollaniladi: tildagi mavjud jami frazeologik birliklarning jami manosida, hamda shunday birliklarning organuvchi soha manosida. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir. Frazeeologiya ozing shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiy etayotgan sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, birgina turkiyshunoslikda frazeologiyani sistemali ravishda organish otgan asrning 40-50 yillaridan boshlandi. Shu davrda turli

---

<sup>9</sup>Haydarov A.,Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik — grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik — semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya — diaxroniya. Materiallar toplami — T.: “Muharrir”, 2012.-B.8—10.

tillardagi frazeologik birliklarni grammatik, leksik-semantik jihatdan organish sohasida muhim yutuqlar qolga kiritildi.

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa dahldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema korinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli manoviy tabiatga ega bolgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka boldi, sirkasi suv kotarmaydi va boshqalar. Malumki, frazeologizm deganda, kochma mano anglatadigan, ibora yoki turgun soz birikmalari tushuniladi.

Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan mano uning tarkibidagi soz komponentlariga xos leksik manolarning oddiy yigindisiga teng bolmaydi, iboraning manosi umumlashma mano, maxraj mano sifatida namoyon boladi. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Frazeologizmlarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham korish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida mano guruhlariga kora tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial manolarini aniqlagan.

Ozbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova, I.Qochqortoyev, A.Rafiyev, B.Yoldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev kabi olimlar ishlarida keng organilgan. Mazkur ishlarda frazeologizm masalalari yetarlicha tahlil qilinib, sozlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qollanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali organilganligi diqqatga sazovor.<sup>10</sup>

Ammo shu bilan birga badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni organish bilan bogliq tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil etadi. Frazeologiya lisoniy kategoriya sifatida keyingi yillarda keng miqyosda organilmoqda. Bu esa frazeologiya muhim soha sifatida shakllanishiga imkon tugdirdi va uning organish kolamini kengaytirdi. Frazeologizmlarning grammatik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini har tomonlama chuqur ilmiy tahlil etish har vaqt tilshunoslar diqqatidir. Frazeologizmlar struktural, semantik, funksional — uslubiy jihatlar bilan murakkab hodisa bolganligi uchun u oziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega.

Frazeologizmlar narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli, ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Frazeologizmlarning paydo bolishi va

<sup>10</sup>Yoldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. — T.: OTA,1992.№3.-B.37-42.

shakllanishi muayyan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, turmushdagi hayotiy voqealik va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador boladi. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi har bir tilning oz ichki qonuniyatlariga, fonetik, leksik grammatik talablariga boysundiriladi. Ular deyarli kochma manoda qollanib, badiiy tasvir vositasida emotsionallik, ekspressivlik xususiyatiga ega boladi. Shu sababli frazeologizmlar insonlarning faqat ongiga emas, balki, his — tuygulariga ham katta tasir korsatadi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta soz ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy mano bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv manoni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va tasirchan vosita sifatida qollaniladi. Ingliz tilida badiiy matnlarda frazeologizmlarning qollanilishiga doir mukammal ilmiy-nazariy tadqiqot ishi bolmasa-da, ammo keyingi yillarda amalga oshirilyapti.

Frazeologizmlarning manosida ikkita qism mavjud:

- 1) ekspressiv baho boyogi;
- 2) funksional-uslubiy boyoq.

Frazeologizmlarning ekspressiv baho boyogida mano nozikliklari yuklanishini alohida takidlaydi.

Bu xususiyat tarkibida emotsionallik va ekspressivlik asosiy omil ekanligini, emotsionallik frazeologizmlarning turli xil his-tuygularini, shaxs va predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarni ifodalasa, ekspressivlik nutqning tasirchanlik xususiyati hisoblanishini izohlab otgan<sup>11</sup>. Shuningdek, badiiy matnlarda frazeologizmlardan uslubiy maqsadda ijodiy foydalanish usullari togrisida ham juda kop malumotlar mavjud. Frazeologizmlarni keng miqyosda tadqiq etgan olimlardan biri A.Mamatovdir. Olimning "Ingliz tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari" arsari alohida ahamiyatga egadir. Bu ishda frazeologizmlarning shakllanish tamoyili xususida gap ketadi. Frazeologizmlarning semantik shakllanishida konnotativ mano va nominativ vazifa holatiga asosiy etiborini qaratadi. Olimning takidicha, mavjud barcha frazeologizmlar konnotativ manoga ega bolmaydi. Ammo aksariyat frazeologizmlar konnotativ mano komponentiga ega.

Frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, yani atash semalari bir xil bolsa-da, ifoda boyoqlari bilan keskin farqlanib turadi. Frazeologizmning kopincha,

---

<sup>11</sup>Yoldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. — T.: OTA,1992.№3.-B.37-42.



ifoda semalarida obrazlilik, boyoqdorlik bortib turadi. Aynan shu xususiyati bilan badiiy matnlarda muhim orin tutadi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnlarda tadqiq va tahlil etilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu orinda M.Yoldoshev tomonidan elon qilingan "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" oquv qollanmasi va "Badiiy matnning lisoniy tahlili" nomli metodik qollanmalari ham diqqatga sazovordir.

Mazkur asarlarda ham frazeologizmlarning qollanilishi masalasiga nazar tashlangan. Ayniqsa, bunda badiiy asarlarda faol qollanishda boladigan frazeologik manodoshlik masalasi yoritib berilgan. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon kozi ongida aniq va tola gavdalanitirishda frazeologik iboralarning manodoshligidan keng foydalaniladi. Jumla tarkibida kelgan manodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror-bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha korsatib tasvirlashga xizmat qiladi.

Lugaviy birlik sifatida frazeologizmlar sozlar bilan ham sinonimik munosabatda bola oladi. Badiiy matnda manodoshlikning bunday turidan holatni borttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Ingliz va ozbeek frazeologizmlarining funksional-uslubiy xususiyatlari, iboralarning uslubiy qollanishi haqida B.Yoldoshev frazeologiya sohasiga salmoqli hissa qoshdi.

Olim frazeologizmlarning funksional-uslubiy xususiyatlari boyicha doktorlik dissertatsiyasida mazkur til birliklarining, nafaqat, ogzaki nutqda, balki badiiy tili asar tilida qollanilishi yuzasidan oziga xos fikrlarni bildirgan. Frazeologizmlar biror narsa-hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi.

Xullas, frazeologik birliklar va ular bilan bogliq hodisalar, ularning manoviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunozara bolib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bolsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning kop asrlik turmush tarzi, madaniyati, manaviyati, urf-odatlar va ananalarining badiiy asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, tasirchan bolishini taminlovsi vosita ham hisoblanadi.

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, materiali, asosiy qurolidir. Bizning ong-tuygumizga tasir etib, bizni hayajonga soladigan obraz va manzaralar, lugaviy

birliklar va gaplar yordamida tasvirlanadi. Soz sanatkori badiiy asar tili ustida ishlar ekan, tilda turgunlik kasb etgan, nutqda keng istemol qilinadigan soz, forma va oborotlarni ishlatadi, otkinchi, ikkinchi darajali, til taraqqiyoti uchun xarakterli bolmagan elementlarni oz asarlari tiliga kiritmaslikka harakat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi til boyligidan fikrni eng togri, aniq va londa qilib ifodalaydigan vositalarni terib, saralab ishlatadi. Shu yosinda u tildan foydalanishning, gapirish va yozishning oziga xos mezonini, namunasini yaratadi. Yozuvchi yoki sozlovchi qanchalik istedodli, mehnatsevar bolsa, bu namuna shunchalik hayotiy, jozibador bolib chiqadi. Yozuvchining tilga mana shunday munosabatda bolishi, uning soz tanlash sanati adabiy til va sozlashuv uslubi takomilida jiddiy rol oynaydigan omillardan biridir.

Shuning uchun yozuvchining adabiy tilni rivojlantirishdagi xizmati togrisida gapirganda, u yaratgan yangi lugaviy birliklar bilangina cheklanib qolmasdan, uning nutq ravonligi, sofligi va tasirchanligi uchun kurashi tugrisida gapirish lozim. Adabiy tilning sofligi va tasirchanligini taminlovchi vositalardan biri frazeologizmlar bolib, badiiy adabiyot sozlashuv nutqi frazeologizmlari uchun ham asosiy manba hisoblanadi<sup>12</sup>.

Badiiy nutq obrazli nutq, obrazli til hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotda hayot obrazlar, manzaralar yordamida aks ettiriladi. Bizning ong-tuygumizga tasir etib, bizni hayajonga soladigan bu obraz va manzaralar sozlar yordamida, sozlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi. Frazeologik iboralar zamirida malum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar.

Frazeologik birliklar eng kop badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qollaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan orni muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda quyidagi maqsadlarda foydalanishadi:

---

<sup>12</sup>Yoldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. — T.: OTA, 1992. №3.-B.37-42.

1) voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun: kopgina frazeologik birliklar konkret, korgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs — predmet, voqea — hodisaning obrazli ifodasi bolib keladi. Masalan: tili uzun, dunyoni suv bossa, topigiga chiqmaydi kabilar. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki tasirchan shaklga — obrazli tasavvurga ega bolgan frazeologik birliklar uchun koproq xarakterlidir. Bazan frazeologizmlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik radiatsiyasi baxsh etadi. Masalan: *the apple of ones eye*- koq qorachigi, kozining oqu-qorasi; *milk and honey*-tokin-sochinlik, mol-kolchilik; *the fat of the land*-tokin-sochinlik, baraka.

2) turli holatlarni baholash uchun: frazeologizmlarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham badiiy asarlarda ozining salmoqliligi bilan ajralib turadi. Masalan: 1) *to look a gift horse in the mouth*-to examine a person too critically, to ride the hide horse-to behave in a superior, haughtily, over bearing way, 2) *a big bug -a person* to importance, to fish out of water -a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment.

3) badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: ingliz tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy mano — mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki sozlovchining shodligi, gazabi, nafrati, okinchi, qorquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. *extremely tired, exhausted, happy, sad.*

4) nutqda ekspressivlikni ifolash uchun: *Ekspressiya* sozi lotincha bolib, nutqning tasirchanlik xususiyatini ifodalaydi, bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi. Misol: *Manna from heaven*-zor-intizor bolib kutmoq.

5) badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun: yumor va satira vositalari orasida frazeologizmlar alohida orin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bogliq, chunki kopgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari mano nozikliklari boladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning sozlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani takidlash vositasi bolib xizmat qiladi. Misol: *have kissed the blarnly stone*-tilyoglamachi, xushomadgoy.

6) Frazeologizmlarning xilma-xil qollanish darajasiga ega bolishi ularning uslubiy boyogiga ham bogliq. Badiiy asarlarda, umuman, adabiy tilda funksional jihatdan xoslanmagan kopgina frazeologik birliklar tez-tez uchraydi. Frazeologizmlar badiiy asarlarda asosan ekspressiv baho vositasi bolib kelganligi uchun ularning umumtil miqyosidagi darajasi u yoki bu yozuvchining malum bir asaridagi qollanish miqdori bilan doimo mos kelavermaydi. Har bir yozuvchining mazkur birliklardan oz asarida foydalanish mahorati bilan ham farq qiladi. Shu sababli ham kopgina frazeologik birliklar ozining kuchli mohiyati bilan asar jozibadorligi oshiradi.

Malumki, frazeologizmlar obrazli til birliklari xisoblanadi. Shu bois, yozuvchi va shoirlar ulardan keng foydalanadilar. Tildagi obrazlikni ifodalovchi vositalar ichida frazeologizmlar aloxida orin tutadi. Chunki ular kesatiq, nafrat, jirkanish, sokish, qargish kabi salbiy, erkalash, hazil, ragbatlantirish kabi ijobiy qoshimcha mano nozikliklarini ifoda etuvchi obrazli birikmalar hisoblanadi.

Frazeologizmlarning asosiy qismi nutqda malum uslubiy maqsad yani, ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu bois, frazeologizmlar badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini tola ochishda, voqea-hodisa, holatlarini obrazli, borttirib tasvirlashda qollanadigan muhim til birligi hisoblanadi. Yozuvchi shu maqsadda ulardan foydalanar ekan, tarjimonlar esa bu maqsad, vazifalarni tola anglashi va ozga til egalariga uni aniq etkazishi kerak boladi. Buning uchun tarjimon asar tili haqida, uning lisony xususiyatlari bilan tanish bolmogi va shunga asoslanib ish kormogi darkor.

Malumki, frazeologizmlar badiiy asar qimmatini oshirishda muhim orin tutadi. Yozuvchi va shoirlar frazeologik birliklarni oz asarlarida qahramon xakteri va hodisalarni ochishda ishlatadilar. Voqea-hodisalarni tasvirlashda oquvchiga estetik zavq berishda ulardan mohirona foydalanadilar. Har qanday frazeologizm osha xalqning turmush sharoiti, udumlari bilan bevosita bogliq boladi. Frazelozizmlarning kelib chiqish omillari ham har bir xalqning oz mentalitetiga xosdir<sup>13</sup>.

Frazeologik birliklarning badiiy matnda qollanilishi bilan bogliq jarayonlari oziga xos tarzda murakkab hamdir. Mazkur birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy manolar mavjud. Frazeologik birliklarning uslubiy manosi ikki komponentdan iborat:<sup>14</sup>

<sup>13</sup>Yoldoshev B. Ozbek va ingliz tilida frazeologik birliklarning funksional — uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T.:1993- B.47b.

<sup>14</sup>Yoldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. — T.: OTA,1992.№3.-B.37-42.

- a) ekspressiv baho boyogi;
- b) funksional-uslubiy boyoq.

Bu ikki xususiyati badiiy matnda qollanilganda ham frazeologizmlar tarkibida yashash huquqiga ega. Mazkur til birliklarining uslubiy xoslanishini belgilashda ichki shaklning jozibadorligi, semantik, ohangdoshlik va miqdoriy mezonlardan kompleks foydalanish, frazeologizmlarning ekspressiv — baho boyogini ham inobatga olish yaxshi samara beradi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon kozi ongida aniq va tola gavdalanitirishda frazeologik iboralarning manodoshligidan keng foydalaniladi. Jumla tarkibida kelgan manodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikirchikirigacha korsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon kozi ongida aniq va tola gavdalanitirishda frazeologik iboralarning orni, ahamiyati beqiyosdir.

Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oziiga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar, odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qollash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab ozgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi mano nozikliklari bilan toyinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha mano talqini berishning yollari juda xilma-xildir. Bunga umumtil iborasi zamiridagi manoning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini ozgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli manolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yoldoshev tomonidan keng organilgan.

Badiiy asarda qollanilgan iboralarni organishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bolgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon boladi. Yuqorida takidlanganidek, badiiy matnda, umuman, yozma va ogzaki matnlarda frazeologizmlar qollanilganda, bu birliklar bir qator funksiyalarni bajaradi. Bu

funksiyalarning bir guruhi uzual, yani lisoniy xarakterga ega bolsa, qolganlari okkazional, yani nutqiy (uslubiy) funksiyalardir. Frazеologizmlarning ichki manosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda royobga chiqadi.

Badiiy asarlarda iboralarni qollash asardagi voqealar rivoji, uning qahramonlari va qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalashda juda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, uslubiy boyoqdolik, hissiy-tasiriylik darajasini ham yanada yaqqolroq namoyon etadi. Badiiy asar tilining qanchalik aniq ravshan, ravon, pishiq bolishi badiiy asarning xalq orasida tez tarqalishiga, kitobxonlar ongiga tez yetib borishiga yol ochadi.

Iboralarni asar qahramonlari nutqi bilan boglab, o'zgartirilgan shakllarda qollash asarning tasirchanlik qobilyatini oshiradi. Bu esa asar qahramonlari tomonidan aytilayotgan gaplarning yanada haqqoniyligini, tabiiyligini taminlaydi. Yozuvchilar oz asarlarida xalq iboralarni qahramonlar fel-atvoriga moslab qollashga harakat qiladilar. Bunday oziga xos nutq asar har bir qahramonining fel-atvori, dunyoqarashi oziga xosligini taminlabgina qolmay, atrofidaqilarga, boshqalarga salbiy yoki ijobiy munosabatini ham ifodalaydi. Uning salbiy yoki ijobiy xislat, fazilatlarini yanada borttirish uchun ham xizmat qiladi. Xuddi shunday mohirona soz qollashni koplav yozuvchilar ijodida kuztishimiz mumkin.

Xulosa tarzida shuni aytiish mumkinki, soz sanatkorlarining badiiy asar tilining boyoqdorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligini taminlovchi xalq shevalari, metaforalar, metonimiyalar, sinekdoha va oxshatishlar, sifatlash, mubolaga, kichraytirish, kinoya, jonlantirish, qarshilantirish, takror, arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar, professionalizmlar, hikmatlar, maqollar va shuningdek iboralardan qay darajada orinli va unumli foydalanishi asarlari tilining oqimishli, xalqchil bolishi uchun xizmat qiladi.

### **Bob boyicha xulosa**

Badiiy nutq bu til vositalari yordamida badiiy asarda obrazli mano ifodalashdir. Tashqaridan qaraganda, badiiy nutq oddiy sozlashuv nutqidan hech farq qilmaydi, lekin u birinchi navbatda estetik funksiya bajaradi. Badiiy nutq har bir ishlatilgan soz va konstruksiyalar yordamida muallif maqsadini amalga oshiradi va asar manosini ochib beradi. Margaret Mitchel bir tomondan voqea-hodisalarni odamlarni va

predmetlarni tasvirlashda ulardan foydalangan bolsa, boshqa bir tomondan esa qahramonlar nutqining lisoniy oziga xosliklari ustida bosh qotiradi.

Biz tahlilga tortgan “Gone with the Wind” asarida qahramonlarning ruhiy kechinmalari va iztiroblarini yorqin boyoqlarda ifoda etgan. Asarda tasvirlangan har bir voqealar rivoji insonni oziga bevosita jalb qiladigan suratda namoyon boladi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va tasirchan vosita sifatida qollaniladi. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki tasirchan shaklga — obrazli tasavvurga ega bolgan frazeologik birliklar uchun koproq xarakterlidir. Xulosa qilib aytganda frazeologizmlar badiiy asar qimmatini oshirishda muhim orin tutadi.

## **II BOB. "GONE WITH THE WIND" ASARIDA SOMATIK FRAZELOGIZMLAR QOLLANISHINING LINGVOMADANIY VA POETIK ASPEKTI**

### **2.1. Ingliz tilida somatizmlar qatnashgan frazeologizmlarning ma'daniy xususiyati**

Somatizmlarga qiziqish va tadqiq qilishni boshlagan birinchi tadqiqotchi olimlardan biri F. Vakk bolib hisoblanadi. U barcha somatizmlarni uch guruhga ajratgan: 1.Odamlarni tavsiflash; 2.Odam va hayvonlarni tasvirlash; 3. Hayvonlarni tasvirlash. Somatizmlar O. Espersen, G. Xoyer, Dj.Layons, D. Bazarova kabi tilshunoslarning ilmiy ishlarida ham korib chiqilgan.

Y.Dolgolopovning rus, ingliz va nemis tillarining somatizmlarini taqqoslagan ilmiy ish diqqatga sazovor ilmiy ishlardan bolib hisoblanadi. O. Nazarova rus va turkman tillarining somatizmalarini taqqoslagan, M.Abilgaliyeva qozoq va nemis tillarining somatizmlarini taqqoslab organishgan, bu izlanishlar ham alohida etiborga loyiqdir.

D.Bazarova esa turkiy tillarning somatizmlarini taqqoslashga bagishlangan bir qator ilmiy izlanishlarni olib borgan. Ozbek tilidagi somatizmlar A.Isaevning “Ozbek tilining somatik frazeologik birliklari” deb nomlangan ilmiy tadqiqotida organilgan. Ushbu ilmiy ishda somatizmlar ularning sinonimi, antonomikasi, homonimiyasi va tilning kommunikativ funktsiyasi nuqtai nazaridan organilgan. U tatar, turkman va

ozarbayjon tillari materiallari boyicha “*bosh*” va “*koz*” komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilgan.

Frazemalarni shakllantirishda inson omili juda katta orin egallaydi, shuning uchun ham odamga semantik yonaltirilgan va inson faoliyatining turli sohalari bilan bogliq bolgan juda kop frazeologik birliklar mavjud. “Inson har doim tashqi dunyo obyektlarini insoniy xususiyatlar, shu jumladan jonsiz xususiyatlar bilan taminlashga intiladi. Shuningdek, Sh.Balli takidlaganidek: Inson ongining abadiy nomukammalligi shunda ham namoyon boladiki, inson doimo uni orab turgan narsani manaviylashtirishga intiladi. U tabiatni olik va ruhsiz deb tasavvur qila olmaydi; uning xayoli doimo hayotni jonsiz narsalar bilan taminlaydi, lekin bu hammasi emas: inson doimiy ravishda tashqi dunyodagi barcha narsalarga uning shaxsiyatiga xos xususiyatlar va intilishlarni belgilaydi”<sup>15</sup>.

Somatik frazeologik birliklar, yani tarkibiy qismlaridan biri inson yoki hayvonlar tanasining qismlarining nomlarini oz ichiga olgan frazeologik birliklar frazeologiya sohasidagi eng keng va samarali guruhlardan birini tashkil qiladi. Ushbu guruh, V.P.Shubinning hisob-kitobiga kora til frazeologiyasi fondining qariyb 15 foizini tashkil qiladi. Somatizmlar turli tillarning lugatidagi eng qadimgi qatlamlardan birini ifodalaydi, xalqning milliy va madaniy xususiyatlarini, urf-odatlarini va ananalarini aks ettiradi, kop yillik tajribasi va maaviy madaniyatini aks ettiradi, tilda ekstralingvistik omillarning harakatlarini namoyish etadi, hayotiy tushunchalarni ifoda etadi va natijada ular ozlariga tegishli kop tillarning barqaror qismini tashkil qiladi. Somatizimli frazeologik birliklarning mashhurligi, shuningdek, mazmuni, millati, yorqin tasviri, grammatik qurilishining soddaligi va stilistik xilma-xilligi bilan ham yordam beradi.

Somatizimli frazeologik birliklarning mashhurligi, tarkibining dolzarbligi, xalqchilligi, jonli tasviri, millati, grammatik qurilishning soddaligi va uslubiy xilma-xilligi bilan ham targib qilinadi. Shuningdek, somatizimli frazeologiyaning oziga xos xususiyati koplalab tillarda manolari va tasvirlari boyicha bir-biriga juda yaqin bolgan koplalab ekvivalentlarning mavjudligidadir. Bu xususiyat somatizimli frazeologik birliklarni boshqa tematik guruhlaridan keskin ajratib turadi.

Somatizimli frazeologik birliklarning turli tillardagi tasvirlarining bir-biriga mos kelishi nafaqat boshqa tilgan olingan ozlashtirilmalar bilan, balki somatizimli

---

<sup>15</sup>Longman Dictionary of English Idioms. London. 1980.



leksemalar, ularning funksional va semantik dinamikasini frazeologik birliklarning tarkibiy qismiga aylantirishning universal xususiyatini korsatadigan yaqin frazeologik birliklarning tarkibiga olib keladigan umumiy korinishlar bilan ham izohlanadi. A.D.Reyxshsteyn bu haqiqatni “bir-biriga qardosh bolmagan yoki uzoq qardosh bolgan tillarning tashuvchisi bolgan odamlar orasida obyektiv yaqinlik, yani umumiy davlat tizimi, armiya, din, xurofot, urf-odatlar va boshqalar” bilan izohlaydi<sup>16</sup>.

Turli tillardagi somatizmli frazeologik birliklarning koplugini tushuntirishning ikkinchi sababi shundaki, ularning tarkibiga kiradigan somatizmli leksemalar metafora qilish qobiliyatiga ega.<sup>17</sup> Shuningdek, B.S.Danilov va N.V. Kunitskaya, "metaforik yoki metonimik uzatish asosida somatizmli frazeologik birliklarni shakllantirish ularning paydo bolishidagi eng samarali omil ekanligini takidladi. Savol tugiladi, nima uchun inson tanasining aniq nomlari odamlarga shunchalik yoqadiki, ularni metafora universallari sifatida ishlatishadi, bu esa somatizmli frazeologik birliklarning shakllanishiga olib keladi.

Haqiqat shundaki, birinchi navbatda, odam har doim atrofidagi korib turgan narsalarni ozi bilan, yani tanasining qismlari bilan yaxshi tanish bolgan qismlari bilan taqqoslaydi. T.N.Chaykoning barcha malumotlarini hisobga olgan holda quyidagi xulosani chiqardi: “Tana qismlari doimiy ravishda bizning kozimiz oldida ekanligi tufayli, ular qiyoslashning oziga xos standartiga aylanadi”.<sup>18</sup> Ammo, turli tillarning somatizmalarini qiyosiy organish boyicha bir qator ishlar qilinganiga qaramay, ushbu tizim milliy va madaniy xususiyatlar nuqtai nazaridan organilmagan. Shuning uchun, ushbu ilmiy maqolada somatizmli frazeologik birliklarni ularning milliy va madaniy xususiyatlari nuqtai nazaridan korib chiqishga urinish boladi, chunki bu somatizmli frazeologik birliklar, kop asrlik tajriba, madaniyat, xalqning urf-odatlari va ananalari tilning milliy madaniy oziga xosligini va originalligini aks ettiradi. Aynan sunning uchun ularni tahlil qilish jarayonida butun insoniyatga xos bolgan frazeologik birliklarning malum bir odamga xos universalligini va oziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bunday frazeologik birliklarga: *a sharp tongue* -tili otkir; *Have a head on ones shoulders* -Yelkasida boshi bolmoq

<sup>16</sup>Merriam Websters Collegiate Dictionary. Eleventh Edition. Springfield Massachusetts Press, USA. 2003.

<sup>17</sup>Merriam Websters Collegiate Dictionary. Eleventh Edition. SpringfieldMassachusettsPress, USA. 2003.

<sup>18</sup> Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. — Изд. 4-е, переработанное и дополненное. - М.:Русскийязык.1984.— С.942.

*Come into ones head*- kallasiga kelmoq, *Look through ones fingers* -barmoq orasidan qaramoq *To get out of bed on the wrong foot*-chap oyogidan turmoq Bunday birliklar barcha taqqoslanayotgan tillarda mavjud bolib, bu umumiy fikrlash jarayonining mavjudligidan dalolat beradi, har ikkala xalqda ham umumiy fikrlash jarayonining mavjudligini korsatadi, “All hands on deck” —qollar yuqoriga Buyuk Britaniyada kemasozligi juda katta ahamiyati tufayli, boron paytida hamma kemanding pastki qismida toplanishi kerak edi; “*Private eye*” - xususiy detektiv, “a *heart of oak*” - ishonchli, jasur odam, “oak” inglizlarda kuchli, ishonchli, “*the eye of day* (of heaven) kunning (osmonning) kozi” faqat ingliz tiliga xos bolgan samoviy koz, quyosh.<sup>19</sup>

Somatizmli frazeologik birliklar asosan odamning yoki hayvonning hattiharakatlarini kuzatishga asoslangan, odamning hissiy holatini oziga tortadigan nutqning majoziy metaforik burilishidir. Somatizmli frazeologik birliklarda tana azolarining nomlari qollaniladi, ularning vazifalari bilan inson har kuni duch keladi. Frazeologik birliklar guruhlarining soni va mazmunan xilma-xilligi, shu jumladan tegishli somatizmlar, ayrim organlar yoki tananing ayrim qismlari funksiyalarining ahamiyatiga bogliq. Shuning uchun ham, tana qismlarining nomlari (bosh, koz, yurak, burun, ogiz, oyoq) ishlatilishi jihatidan eng samarali, qolgan tana azolari (yelka, tizza, qoltiq, kirpik) kamroq ishlatiladi.

Eng samarali tana azolarini T.N. Chayko keng manoga ega sozlar bilan koplav manolarni yetkazishga qodir, chunki ismning uzatilishi nafaqat ravshanlikni, balki mavhumlikni keltirib chiqaradi. Eng samaralisi somatizm sozlar bolib, ularning vazifalari odamni tashkil qilishda eng aniqdir va ularni qayta korib chiqish qulayligi ham shu bilan bogliq. Masalan, aqliy jarayonlarning umumiy insoniyligi va tana qismlarining asosiy funksiyalari tufayli, turli xalqlarning koplav somatik frazeologik birliklari ozlari bilan malum aloqa nuqtalariga ega. Masalan: ingliz tilida “*to bite ones lips*” ozbek tilida labini tishlamoq. Somatizmli frazeologik birliklar asosiy qismining manolari insonning hissiy va ruhiy hayoti bilan bogliq. Ushbu faktni V.P. Shubin: “Insonning hissiy va ruhiy holatlari, asosan, somatizmli frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, ularning imkoniyatlari bu jihatdan juda katta” deb takidlagan edi<sup>20</sup>.

Tuygular - bu insonning atrof-muhit bilan ozaro munosabatlarning haqiqiy jarayonining oziga xos aksidir. Atrof-muhit bilan faol munosabat jarayonida inson

<sup>19</sup>Longman Dictionary of English Idioms. London. 1980.

<sup>20</sup>Merriam Websters Collegiate Dictionary. Eleventh Edition. Springfield Massachusetts Press, USA. 2003.

befarq qolmaydi, u ushbu hodisalarga o'zining subektiv munosabatini bildiradigan tajribaga ega. Shunday qilib, “head”, “bosh” tarkibiy qismlariga ega bolgan koplabb frazeologik birliklar “fikrlash” semantik guruhiga; “eyes, koʻz” komponenti bilan — “idrok, etibor” semantik guruhiga; “hand”, “qol” komponenti bilan — “faoliyat, egalik” semantik guruhlariga kiradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, bu yerda kopincha frazeologik birliklarni kop qirrali qayta korib chiqish mumkin.

Somatizmlar quyidagi konseptual manolarni ifodalashi mumkin:<sup>21</sup>

I. **Shaxsning psixologik holati.** Tuygular, hissiy, psixologik holatlar:

a) qorquv: *to be afraid, dropped my liver, quaking my boots, snorting, scared out of mind, have ones heart in ones mouth. He was scared out of his mind. Sure had me snorting, son. For a minute, I was afraid. I am quaking in my boots. My liver almost fell out;*

b) gazab: *wipe out, eliminated from the face of the world, wiped out of existence, eradicated. These are weapons of mass destruction that will wipe out entire cities and populations. Given political will and determination poverty can be eliminated from the face of the world. All human beings must be wiped out of existence. Doing so will benefit the region and the entire world, from which ISIL must be completely eradicated;*

c) tajovuzkorlik, gazablanish, norozilik:, hayratlanish holati: *to be blue in the face red in the face; fed to the teeth; up to the eye; to become red in the face; black (blue) in the face; fly in the face;* o'zbek tilida: yuziga sapchimoq;

d) hayrat;

e) xijolat tortish, uyatchanlik: *the redder to the roots of ones hair;* o'zbek tilida: yuzi qizarib ketdi;

f) odamning kayfiyati: *to get out of bed on the wrong foot;* o'zbek tilida: ormidan chap yoni bilan turmoq;

g) sentimentallik: *break heart, have smth. at heart; tender heart; it makes the heart bleed; Shes probably just leading you on so she can break your heart;*

h) kimgadir nisbatan qadriyat munosabati: *an apple of ones eyes;*

i) insonning intizorlik, umidsizlik, tushkunlik, melanxolikadagi emotsional holati: *broken heart, be sick at heart, break smb.s hear;*

<sup>21</sup>Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. — Изд. 4-е, переработанное и дополненное. — М.:Русский язык. 1984.—С. 942.

j) muvaffaqiyat quvonchi, birov ustidan galaba: *wipe smb.s face*, k) hayajonli hissiy holat: *at heart*.

## II. Shaxsning xarakterli xususiyatlari:

a) xushmuomalalik, samimiylik: *in the fullness of ones heart; kind heart, from the bottom of ones heart*;

b) poklik, beguborlik, halollik, odob-axloqlik: *white hands*;

c) qorqoqlik: *white-lived; not to have the heart*;

d) saxiylik: *an open hand, open handed*;

e) qiziqish: *poke ones nose into somebodys affairs*;

f) shafqatsizlik: *a heart of stone, a heart of flint, cut each others thought, cut the thought*;

g) oddiy qalbli, aybsizlik: *It is written all over his face*;

h) rostlik: *in smbs face; to ones teeth; in the public eye*;

i) giybatgamuhabbat: *loose tongue, a big mouth, too vulgar, talk too much, a chatty mouth except, talkative, tongues wagging. No, no, no, you got the big mouth. Dont tell him. He has got a loose tongue. You have certainly got tongues wagging. Mona Clarks got a big mouth. I think you talk too much. I got a big mouth. Does anyone here have a chatty mouth except for you*;

k) beparvolik: *escape smbs lips*.

## III. Odamning jismoniy holati:

a) charchoq: *one is blue in the face, be dead on ones feet, have leaden feet*;

b) chaqqonlik va tezkorlik: *dont be long, will be in and out, to get in and out, be right back. Dont be long. You will be in and out before you know it. I hear youre fast on your feet and know how to get in and out. Two weeks and Ill be right back*.

## IV. Odamning tashqi qiyofasi:

a) tashqi korinishi yoqimli: *easy on the eye*;

b) xakerning korinishi: *black eye; black and blue*;

c) yoqimsiz tasqi korinish: *pudding face, hatchet face*.

## V. Shaxsning ijtimoiy xususiyatlari:

a) insonning moddiy ahvolini tavsiflovchi: *live from hand to mouth*;

b) birovga qaramlik: *under the press of somebodys*;

c) biror narsada qatnashish: *have a finger in smth, have a hand in smth, wash ones hand;*

d) ijtimoiy ustunlik: *have long hands.*

Xulosa. Shunday qilib, somatizmlı frazeologik birliklarning ingliz tilidagi tahlili somatizmlı frazeologik birliklar malumotlariga asosan bir nechta konseptual zonalarni tashkil etishini va quyidagilarni oz ichiga olgan insonni xarakterlash uchun ishlatilishini aniqlashga imkon berdi:

- 1) insonning psixologik xususiyatlari;
- 2) xarakterologik malumotlar;
- 3) tashqi xususiyatlar;
- 4) jismoniy xususiyatlar;
- 5) ijtimoiy xususiyatlar.

Eng keng konseptual zonalar - bu insonning psixologik va xarakterologik xususiyatlarini ifodalovchi konseptual sohalar ekanligi aniqlandi. Har ikkala konseptual sohada ham ijobiy, ham salbiy xarakterdagi kontseptual manolar aniqlandi.

## **2.2. Eye, head, teeth, brain, tongue, hand, foot sozlari qatnashgan frazeologizmlarning funktsional va poetik xususiyatlari**

Frazemaning semantik tarkibida frazeologik manodan tashqari, uslubiy boyoq ham mavjud boladi. Masalan, **“toninıteskarikiymoq”** frazemasining semantik tarkibida **“ochakishmoq”** (frazelogik mano) bilan birga **“qaysarlik”** semasi ham (uslubiy boyoq) ham bor.

Somatik frazeologik birliklar, yani tarkibiy qismlaridan biri inson yoki hayyonlar taanasining qismlarining nomlarini oz ichiga olgan frazeologik birliklar frazeologiya sohasidagi keng va samarali guruhlardan birini tashkil qiladi. Biz tahlil qilayotgan asarimiz **“Gone with the Wind”** asarida ham somatik frazeologik birliklarning qollanilishi 70% ni tashkil etadi.

Somatizmlı frazeologik birliklar asosiy qismining manolari insonning ruhiy va hissiy hayoti bilan bogliq. Ushbu faktni V. Shubin: **“Insonning hissiy va ruhiy holatlari, asosan, somatizmlı frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, ularning imkoniyatlari bu jihatdan juda kata”** —deb takidlagan edi.

Shunday qilib, “head”, “bosh” tarkibiy qismlariga ega bolgan koplak frazeologik birliklar “fikrlash” semantic guruhiga; “eyes”, “koz” komponenti bilan — “idrok”, “etibor”, semantic guruhiga; “hand”, “qol”, komponenti bilan — “faoliyat”, “egalik”, semantic guruhiga kiradi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, bu yerda kopincha frazeologik birliklarni kop qirrali qayta korib chiqish mumkin.

Frazeologik manolar ham xuddi leksik manolarda namoyon bolganidek, oziga xos kontekstda namoyon boladi. “Eye” sozi qatnashgan frazeologik iboralar badiiy matnda turli funksional mazmun kasb etishi qator misollarning diskursiv-kontekstual tahlili asosida oydinlashadi. Masalan, asarda “eye” sozi ozining kontekstual manosidan kelib chiqib salbiy, ijobiy, neytral konotatsiyaga ega. Misol uchun:

1. *Peter sucked in his breath and his wrinkled brow showed deep furrows but **keephiseyes** straight ahead. He had never had the term “nigger” applied to him by a white person in all his life. By other negroes, yes. But never by white person. And to be called untrustworthy and an “all pet”, he, Peter, who had been the dignified mainstay of the Hamilton family for years!*<sup>22</sup>

2. *Still the man silent and abject, Finally, he **raisedhiseyes**, looked Scarlett in the face imploringly and dropped his gaze again. “Scared to talk? Well, go in the pantry and get that ham off the shelf. Rebecca, give him your knife. Take it out to those men and divide it up. Rebecca make some biscuits and coffee for men. And serve plenty of sorghum. Start now, so I can see you do it.”*<sup>23</sup>

3. *It all sounds like tootle to me she said coldly, Well, it should not said Grandma **fastening a sharp eye upon her**. For its just exactly the course you have been following since you went to Atlanta. Oh, yes! We heard of your didoes, even if we are buried down here in the country. You have changed with the changing times too. We hear how you suck up to the Yankees and the white trash and the new-rich Carpetbaggers to get money out of them.*<sup>24</sup>

4. *His one **eyemet** hers with impersonal animosity. Yes. A womans got no bizness bothering her men folks when they are trying to take care of her. If you are bound to gad about, I will drive you. I hate niggers—Yankees too”. He shifted his wad*

<sup>22</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

<sup>23</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

<sup>24</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

*of tobacco to the other cheek and, without waiting for an invitation, sat down on the top step.*<sup>25</sup>

5. *Rhett Butler stood in the doorway, his black slouch hat low over his eyes, the wild wind whipping his cape about him in snapping folds. For once his good manners had deserted him. He neither took off his hat nor spoke to the others in the room. He **had eyes** for no one but Melanie and he spoke abruptly without greeting.*<sup>26</sup>

6. *Set, said Archie **fixing with her eye**. “I will tell you. Because you went gallivantin this afternoon and got yourself into trouble through your own fault, Mr. Wilkes and Mr. Kennedy and other men are out tonight to kill that thar nigger and that thar white man, if they can catch them, wipe out that whole Shantytown settlement”*<sup>27</sup>.

Quyidagi keltirilgan misollardan 1-2-6 iboralar konotativ mano jihatidan neytral hisoblanadi. Uslubiy boyoqdorlik, emotsional-ekspressiv boyoqdorlikka ega. Uchchala frazeologik birlik ham ozbek tilida funksional ekvivalentiga ega bolib, **tikilmoq, sinchiklab qaramoq**, deb tarjima qilinadi.

3-4-5 gaplarda qollanilgan iboralar salbiy boyoqdorlikka hamda badiiy emotsionallikka ega bolib, buni konteksts manosidan ilgab olish mushkul emas. 3-gapdagi **“fastening a sharp eye”** iborasi **“qattiq tikilib qaramoq”** deb tarjima qilinib, iboradagi **sharp** sozi ekspressiv boyoqdorlikni kuchaytirishga, asar qahramonining holatini yanada mukammal tasvirlashga yordam bergan.

5-gapdagi **“to have no eye for”** iborasi sozma-soz ozbek tiliga tarjima qilinganda, **“korishga kozi yoq”** deb tarjima qilinadi. Misolimizda korsatilganidek, iboralar sozma-soz tarjima qilinganda ham mazmuni jihatdan ozbek tilidagi ekvivalentiga ega bolsa toliq funksional ekvivalent hisoblanadi.

Keyingi kopyina iboralarda qollanilgan, soz bu **“head** bolib, misollarni korib chiqamiz:

*I am cad he muttered, **dropping his head** tiredly back into **her lap**. But not that big cad. And if I did tell you, would not believe me would you? You are too good to believe me. I never before knew anybody who was really good. You would not believe*

<sup>25</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

<sup>26</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

<sup>27</sup>Margaret Mitchell. Gone with the wind. A project Gutenberg Australia eBook. <http://gutenberg.net.au.2002>

